

**MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARI TARBIYACHILARINING BOLALAR  
BILAN O'ZARO PSIXOLOGIK MUNOSABATLARI****Yusupova Vasila Yangibayevna***Xorazm viloyati P.Y.M.O'M.M**Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus**ta'lim metodikalari kafedrası katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning yoshga doir xususiyatlari va ular bilan muloqotni tashkil etish shakllari haqida bayon etilgan. Maqola MTT pedagoglari va talabalar va ota-onalar uchun mo'ljallangan.*

**Kalit so'zlar:** *Maktabgacha yosh, muloqot, ijtimoiylashuv.*

**Аннотация:** *В данной статье описаны возрастные особенности детей дошкольного возраста и формы общения с ними. Статья предназначена для педагогов МТТ, студентов и родителей.*

**Ключевые слова:** *дошкольный возраст, общение, социализация.*

**Abstract:** *This article describes the age characteristics of preschool children and forms of communication with them. The article is intended for teachers of MTT and students and parents.*

**Keywords:** *preschool age, communication, socialization.*

Bugungi kunda ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya sifatini takomillashtirish, har tomonlama ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalangan barkamol shaxslarni voyaga yetkazish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri desak adashmagan bo'lamiz. Insonni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash xalqimizning azaliy orzusi bo'lib, ajdodlarimiz ma'rifat, ma'naviyat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o'rgatish, ularni komillikka yetaklash yo'llari, qonun-qoidalarini muttasil izlaganlar. Bular esa hamisha bolalar ta'lim-tarbiyasi oldidagi dolzarb yechimtalab muammolardan biridir. Bugun maktabgacha ta'limi oldida ham shu savollar ko'ndalang turibdi. Sababi uzluksiz ta'lim tizimining bosh bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'limda eng asosiy fundamental bilimlar shakllantirilishi lozim. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasida juda tez sifat o'zgarishlari bo'lishini inobatga olgan holda 3 davrga: 3-4 yosh kichik maktabgacha davri. 4-5 yosh kichik bog'cha yoshi o'rta maktabgacha davr (o'rta bog'cha yoshi). 6-7 yosh va katta maktabgacha davr katta bog'cha yoshlariga ajratish mumkin. Bola rivojlanish jarayonida odamlarning ilgari o'tgan avlodlari tomonidan yaratilgan predmet va hodisalar olami bilan alohida maxsus munosabatga kirishadi. Bola insoniyat qo'lga kiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda o'zlashtirib, egallab boradi. Bunda predmetlar olamini, hamda ular yordamida amalga oshiriladigan xatti-harakatlarni, tilni, odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o'sib borishi, katta yoshli kishilarning

bevosita yordamida amalga oshirilib borilmog'i kerak. Asosan, mana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Bog'cha yoshdagi bolalarga beriladigan tarbiya ularning murakkab harakatlarini takomillashtirish, elementar gigiena, madaniy va mehnat malakalari hosil qilish, nutqini o'stirish hamda ijtimoiy axloq va estetik didning dastlabki kurtaklarini yuzaga keltirish davridir. Mashxur rus pedagoglaridan biri Lesgaftoing fikricha, insonning bog'cha yoshdagi davri shunday bir davrki, bu davrda bolada kelgusida qanday xarakter hislatlari paydo bo'lishi belgilanadi va axloqiy xarakterning asoslari yuzaga keladi. Bog'cha yoshdagi bolalarning ko'zga tashlanib turuvchi xususiyatlaridan biri ularning serharakatligi va taqlidchanligidir. Bola tabiatning asosiy qonunini shunday ifodalash mumkin: bola uzluksiz faoliyat ko'rsatishni talab qiladi, lekin u faoliyat natijasidan emas, balki faoliyatning bir xilligi va bir tomonlamaligidan charchab qoladi. Mana shu so'zlardan bog'cha yoshdagi bola tabiatning asosiy qonuni bo'lmish serharakatligini ortiq cheklab tashlamay, balki maqsadga muvofiq ravishda uyushtirish kerakligi yaqqol ko'rinib turibdi. Kattalar va tengdoshlari bilan bo'lgan munosabat orqali bola axloq normalari, kishilarni anglash, shuningdek, ijobiy va salbiy munosabatlar bilan tanisha boshlaydi. Bog'cha yoshdagi bola endi o'z gavdasini juda yaxshi boshqara boshlaydi. Uning harakati muvofiqlashtirilgan holda bo'ladi. Bu davrda bolaning nutqi jadal rivojlana boshlaydi. U yangiliklarni egallashga nisbatan o'zi bilganlarini mustahkamlashga ehtiyoj sezadi. O'zi bilgan ertagini qayta-qayta eshitish va bundan zerikmaslik shu davrdagi bolalarga xos xususiyatdir. Bog'cha yoshdagi bolalar ehtiyoji va qiziqishlari jadal ravishda ortib boradi. Bu avvalo keng doiraga chiqish ehtiyoji, munosabatda bo'lish, o'ynash ehtiyojlarinig mavjudligidir. Bog'cha yoshdagi bolalar nutqni bir muncha to'la o'zlashtirganlari va haddan tashqari harakatchanliklari tufayli ularda o'zlariga yaqin bo'lgan katta odamlar va tengdoshlari bilan munosabatda bo'lish ehtiyoji tug'iladi. Ular tor doiradan kengroq doiradagi munosabatlarga intila boshladilar. Ular endi qo'ni-qo'shnilarining bolalari bilan ham jamoa bo'lib o'ynaydilar. Hamma narsani bilib olishga bo'lgan ehtiyoj kuchayadi. Bog'cha yoshdagi bola tabiatiga xos bo'lgan kuchli ehtiyojlardan yana biri muloqotga bo'lgan ehtiyojdir. Bola predmetlarga bo'lgan qiziqishini avvalo kattalarga murojaati orqali bildiradi. Kerakli yordamni nutqni qo'llash orqali oladi. Bu yerda kattalar bolaga qanday talablar qo'yishlari muhim o'rin tutadi. Kattalar agar bola bilan kam muloqotda bo'lsalar, uning nutqi rivojlanishdan orqada qolishi mumkin. Muloqotga bo'lgan ehtiyoj bolada o'z-o'zidan rivojlanmaydi, balki predmet faoliyati bo'yicha kattalarning muloqoti orqali o'sadi. Kattalar tomonidan bo'ladigan to'g'ri muloqot chaqaloqda muloqotga bo'lgan ehtiyojni shakllantiradi. Bolaning muloqoti reaktiv (passiv) yoki aktiv (faol) shaklda bo'ladi [2].

Bolaning kattalar bilan qiladigan muloqoti dastlab kattalarning yuziga va ko'zlariga qarashdan boshlanadi. Bir yarim-ikki oylikda bola kattalarning jilmayishiga o'zining kulgusi bilan javob qaytaradi. Ilk bolalik davrida nutqning rivojlanishi ikki xil yo'l orqali amalga oshiriladi: kattalar nutqini tushunishi hamda bolaning shaxsiy faol

nutqi shakllanishi orqali. Bola bilan onaning muloqoti faqatgina soʻzlar bilan emas, balki mimika, imo-ishora, pantomimika, ohang va vaziyat kabilar orqali amalga oshiriladi. Bular harakatga signal boʻlib xizmat qiladi. Bola 3 yoshgacha atrofidagi narsalarni ushlab koʻrib, ogʻziga solib, ochib oʻrgansa, unda nutq paydo boʻlgandan keyin bilimlarni egallash jarayoni yanada tezroq, samaraliroq kecha boshlaydi. Dunyoda qoʻl bilan ushlab boʻlmaydigan, koʻz bilan koʻrib boʻlmaydigan soʻz va iboralar borki uni faqat “ikkinchi signallar tizimi” hisoblangan nutq orqaligina tushunish mumkin. (Rus psixolog olimi A. Pavlovning “ikkinchi signallar tizimi” boʻyicha tadqiqotlarining asosiy mohiyati shundaki, predmetdan kelayotgan signal “birinchi signal” boʻlsa, soʻz orqali oʻsha predmetning obrazini tasavvur qilish orqali “ikkinchi signal” yaratiladi. Masalan, olmani koʻrganda u haqidagi tasavvur ongimizda namoyon boʻlgani kabi, “qipqizil olma” degan soʻzlar ham ongimizda xuddi shu tasavvurni paydo qiladi).Olimlar bu davrni “savollar davri” deb atashadi. Har tomonlama sogʻlom rivojlanayotgan bola albatta savol berishi lozim. Xoʻsh, savol tugʻiladi: moboda bola savol bermasa-chi? Mutaxassislar fikricha, agar bola savol bermasa, tarbiyachilarning oʻzi savol bera boshlashi zarur ekan. Bola qachon savol beradi? Agar u muammoga, jumboqqa duch kelsa. Faylasuflardan biri: “bolaning aqliy rivojlanishi savol berish va hayratlanishdan boshlanadi”, – degan ekan [3- 6].Lekin aynan shu joyda tarbiyadagi ikkinchi muammo boshlanadi, yaʼni savolga javob beruvchi tarbiyachilarning bilim darajasi, saviyasi. Bola savolga qanchalik aniq, mukammal javob olsa, uning dunyoqarashi shunchalik keng rivojlanadi. Shuning uchun, ota-ona hamda tarbiyachilar barcha fanlar yuzasidan toʻlaqonli bilimlarga ega boʻlishlari lozim. 3 yoshga toʻlganda bola kattalar bilan munosabatlarga bimalol nutq orqali kirisha oladi. Bu yoshdagi bolalar hamma kiyimini oʻzi kiyishga harakat qiladi. Oʻz ehtiyojlarini soʻzlar orqali bayon qila oladi. Chunki nutqni toʻla egallaydi. Bola kattalarning koʻrsatmasiga binoan hatti - harakatlarini toʻgʻri yoʻnaltirishga oʻrganadi. U kattalarning oʻzaro muloqotini jon qulogʻi bilan eshitadi, tushunishga harakat qiladi. Bu davrda bolalar ertak, hikoya, shehrlarni eshitishni juda yaxshi koʻradi [7].

Bu bolaning tashqi olamni bilishiga katta tahsir koʻrsatadi. Bola ijtimoiylashuv jarayonida turli tahsirlarni (shu jumladan tarbiyaviy tahsirni) passiv holda holda qabul qilmaydi, balki, sekin-asta ijtimoiy tahsirning obhektidan uning faol subhektiga aylanib boradi. Bolalik davrida insonning oʻzligi shakllanadi, oʻzi haqidagi tasavvuriga poydevor qoʻyiladi. Bola oʻzida ehtiyojlar mavjudligi tufayli faollik koʻrsatadi, tarbiyaviy jarayonda ushbu ehtiyojlarni hisobga olinishi bolada faollikni rivojlanishiga yordam beradi.Bordi-yu tarbiyachilar oʻz «tarbiyaviy faoliyatlarini» amalga oshirishlari uchun bola faolligini cheklashga harakat qilib, uni doimo «tinch oʻtirish»ga majbur qilsalar, bu bilan ular har tomonlama yetuk, uygʻun tarzda rivojlangan shaxsni emas, balki ijtimoiy moslashuvga qobiliyatsiz, nochor va passiv shaxsni shakllantirishga muvoffaq boʻladilar. Bola faolligining doimiy boʻgʻilishi natijasida u ijtimoiy munosabatlarga moslasha olmaydigan, asabiy boʻlib shakllanadi yoki (mahlum

individual xususiyatlarga, masalan, kuchli asab tizimi tipiga ega bo'lganda) faollik turli muqobil yo'llar orqali yuzaga chiqadi(masalan, nima man etilgan bo'lsa, shuni yashirin amalga oshirishga harakat qiladi). Bola ulg'ayar ekan, maktabda unga singdirilayotgan baho mehzonlari (jamiyatda qabul qilingan normalar, qoidalar) ko'chada o'rtoqlari bilan muomalada qabul qilingan baho me'zonlaridan keskin farq qilsa, bu uning shaxsiyatida ichki ziddiyatlar paydo bo'lishiga olib keladi [8].

Ota-ona va bolalar munosabati o'zaro muloqot asosida quriladi. Kichik yoshdagi bolalar bilan bo'lgan muloqotda uchraydigan kamchiliklardan yana biri, bolaning kattalar tiliga emas, balki kattalarning bola tiliga taqlid qilishidir.

Ayrim ota – onalar ataylab tillarini chuchitib, bola nutqiga moslashadi. Bu narsa bolalar nutqida turli defektlar paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. 3 yoshli bolalarda birinchi “inqiroz” davri boshlanadi. Bunda bola o'z “men”ligini oilada tasdiqlashi zarur. Bu davrda bolalarda «hamma ishni o'zim qilaman», “men o'zim”, - degan tushunchalar shakllanadi. Ular qaysar, injiq bo'lib qoladilar. Ota-onalar bu yoshdagi bolalarga tarbiya berishda undagi bu xususiyatlarni hisobga olishlari lozim [9]. Bolalarning yetakchi faoliyati maktabgacha davrda o'yin bo'lib hisoblanadi. Kattalar o'yinchoqlar tilidan bola bilan muloqotda bo'lishlari muhim ahamiyatga ega. 9 oylik bolalarga endi o'yinchoqdan tashqari qog'oz, qalam ham berish kerak. Shunda bola yozma nutqning rasmlar chizish elementlarini shakllantirish mumkin bo'ladi. O'yin orqali bolalarda sezgi, idrok, xotira, fikrlash, fantaziya kabi ruhiy jarayonlar, shuningdek, harakter hislatlari, qobiliyat turlari, temperament (mijoz) tiplari rivojlanadi. Bolalarning nutqini, muloqotini rivojlantirishda kattalar muhim ro'l o'ynaydilar. [10]

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bola shaxsini shakllanishida salbiy omillarga ega bo'gan jamoa ta'sir etsa, ushbu jamoaning qadriyatlari va normalarini u o'zining shaxsiy qadriyatlari va normalari sifatida idrok etadi, uning faol mavqei ahamiyatli va jozibali bo'lib qoladi. Mana shuning uchun ham jamoaning ruhiy muhiti –bolaning ruhiy sog'lom va ma'naviy faol shaxsning shakllantirishning hal qiluvchi shartidir. Maktabgacha yoshdagi bolalar o'rtasidagi munosabatlar muammosi pedagogika va psixologiyaning eng muhim muammolaridan biridir. Bolalar bog'chasi guruhidagi bolalar o'rtasidagi munosabatlarning xususiyatlarini va bu holatda ular duch keladigan qiyinchiliklarni bilish kattalarga maktabgacha yoshdagi bolalar bilan tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda katta yordam berishi mumkin. O'tkazilgan tadqiqotlar o'qituvchilarga quyidagi tavsiyalarni berishga imkon beradi: - tarbiya va ta'lim jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarning irgadagi o'zaro munosabatlarini tashkil etish orqali ularning muloqot qobiliyatlarini tarbiyalashga ko'proq e'tibor berish; - bolalarga ziddiyatli vaziyatlarni qanday hal qilishni o'rgatish. muloqot ko'nikmalarini shakllantirish uchun o'yin darslaridan foydalaning

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Sh. M. Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz”. O‘zbekiston -2019y
- 2.Хатамова, Д. А. (2016). К вопросу об идентификации некоторых литературоведческих категорий. Молодой учёный, 7, 1185.
3. Журчева, Т. В. (2011). Герой и среда в современной драматургии: от" Утиной охоты" до" Кислорода" и" Пластилина". In Современная драматургия (конец XXначало XXI вв.) в контексте театральных традиций и новаций (pp. 39-48).
4. Хатамова, Д. А. К ПРОБЛЕМЕ АДЕКВАТНОСТИ ПЕРЕВОДА ЛИТЕРАТУРОВЕДЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ. In Стратегії міжкультурної комунікації в мовній освіті сучасного ВНЗ [Електронний ресурс]: зб. матеріалів Міжнар. наук.-практ. конф., м. Київ (5 березня 2016 р.).—К.: КНЕУ, 2016.—233 с. ISBN 978-966-956-090-1 (p. 213).
- 5.Ахмедова, М. (2020). ИЗУЧЕНИЕ ПРОБЛЕМ СРАВНИТЕЛЬНОГО ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЯ В УСЛОВИЯХ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ. Review of law sciences, (2).
6. Ахмедова, М. М. (2020). РАССКАЗЧИК-ГЕРОЙ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ А. ЮЛДАШЕВА (ЙУЛДАШЕВА)(РАССКАЗЫ «ПУАНКАРЕ» И «БЛИЗНИЦЫ»). Oriental Art and Culture, (IV).
7. Исмоилов, Ш. О., & Ахмедова, М. М. (2020). ИЗУЧЕНИЕ ОСНОВНЫХ АСПЕКТОВ СОВРЕМЕННОЙ ПРОЗЫ ВО ВРЕМЯ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ. Science and Education, 1(4), 268-274.
8. Akhmedova, M. M. (2021). The transformation of Russian prose of the XXI century. Science and Education, 2(4), 527-532.
9. Ахмедова, М. М. (2019). О ПРОЦЕССЕ ТРАНСФОРМАЦИИ ГЕРОЯ (на примере рассказа З. Прилепина «Какой случится день недели»). In Проблемы методологии и опыт практического применения синергетического подхода в науке (pp. 39-40).
10. Аделя, И. Н., Исломбек, С. К., & Ахмедова, М. М. (2020). РОЛЬ ЛИТЕРАТУРЫ В ФОРМИРОВАНИИ ГРАЖДАНСКОГО ПРАВА. Science and Education, 1(4).